

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVASIYALAR VAZIRLIGI

ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI

ROMAN-GERMAN VA SLAVYAN TILLARI FAKULTETI

KUNDUZGI TA'LIM SHAKLI

60230100 - FILOLOGIYA VA TILLARNI O'QITISH (NEMIS TILI)

TA'LIM YO'NALISHI BITIRUVCHI TALABALARI UCHUN

MUTAXASSISLIK FANLARIDAN

VAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIYA

DASTURI

Andijon-2026

Dastur Andijon davlat chet tillari institutida ishlab chiqilgan.

2025-2026 o'quv yili yakunida bitiruvchilardan O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 22 avgustdagi ____-l-son bilan tasdiqlangan namunaviy o'quv rejadagi umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan o'tkaziladi.

Yakuniy Davlat attestatsiyasi sinovlarida o'qitiladigan fanlar tarkibi:

1. Nemis tili nazariy grammatikasi;
2. Nemis tili nazariy fonetikasi;
3. Nemis tili leksikologiyasi va stilistikasi;
4. Qiyosiy tipologiya;
5. Tillar o'qitish metodikasi va ta'lim texnologiyalari;

1. Nemis tili nazariy grammatikasi

I-bo'lim. Kirish. Roman-German tiliari grammatikasi haqida umumiy ma'lumot

Roman va german tillarining hind-evropa tillar oilasida tugʻan oʻrmi. Hozirgi zamon roman va german tillari, ularning tarqalishi va tasnifi. Roman va German qabilalari haqidagi maʼlumotlar: (Piteas, Yuliy Tsezar, Tatsiy) roman va german qabilalarining tasnifi va “xalqlarning buyuk koʻchishi” davrida ularning joylashishi. Roman va german va roman tillarining oʻziga xos xususiyatlari: undoshlarning birinchi koʻchishi, Grimm qonuni, Verner qonuni, unilarning oʻzgarishi, otlarning turli tizimi, feʼllarning miqdor oʻzgarishi va suffiksli feʼllarga ajralish tizimi, qadimgi alifbo, roman va german tillarining eng muhim yozma yodgorliklari va ularning tasnifi.


2-bo'lim. Tillar taraqqiyotida tarixiy grammatika masalasi

Evropa qit'asida Kelt qabilalari. Rim qo'shinlarining Britaniya orollarini bosib olishi, Rimliklar qo'rgan tarixiy obidalar. Mimaqada g'arbiy german qabilalari va ularning Rim bilan aloqasi. Anglo-sakson, friz va yut qabilalarining Britaniya orollarini istilo qilishi va anglo – sakson davlatlarining yuzaga kelishi. Lotin tili va uning roman tillarining shakllanishidagi o'rni va ahamiyati. Qadimgi alfavilar va yozma yodgorliklar Fransuz tilining paydo bo'lish tarixi. Roman-german tillari tovush tizimining tarixiy qonuniyatlari; palatalashuv. Sonor undosh birkimlari oldida

Tuzuvchilar:

Kafedra mudiri:

Fakulteti dekani:

O'quv ishlari bo'yicha prorektor v.v.b : 
K.N. Karimov

O.B. Azamov

M.S. Pazilov

K.N. Karimov

unlilarning cho'ziliishi, keyingi undoshning tushib qolishi natijasida unlilarning cho'ziliishi. Undoshlarning birinchi va ikkinchi ko'chishi

3- bo'lim. Morfologiya

Roman-german tillari morfologiyasi. O'ning grammatik kategoriyalari: rod, son, kelishik. Negiz asosida otalarning qadimgi tasnifi. Orlarda ko'plik shakllarining hosil bo'lishi va ularning turlari. So'zning morfologik strukturasini lechi fleksiya yordamida o'zaki unilining o'zgarishi. Tashqi fleksiya. Fleksiyasiz tovush almashinishi.

4- bo'lim. Nemis tilida sintaksis

Sintaksis. Gap turlari. So'roq gaplarda so'z tartibi. Gapda bosh bo'laklarning ifoda etilishi. Sodda gapda sintaktik aloqalarning ifodalanishi. Kelishiklarning vazifalari.

5- bo'lim. Nemis tili lug'at boyligi

Roman-german tillari lug'at tarkibi va ularning taraqqiyoti.

Lug'at tarkibining xususiyatlari. umum hind – evropa va umum roman va german so'zlari, lug'at tarkibining boyib borishi va uning turli yo'llari. Affiksalar yordamida so'zlarni yasash. Mahsulador va kam mahsul affiksalar. ; Qo'shma so'zlar. qo'shma so'zlarni hosil qilish yo'llari. Tovush almashinishi (umlaut) ; Eski so'zlarning yangi ma'noga ega bo'lishi. O'zlashima so'zlarning ishlatilishi.

6- bo'lim. Nemis tilida sintaksis.

Gapning bosh bo'laklaridagi qat'iy tartibning asla – sekin qaror topishi. Qo'shimcha gaplarning rivojlanishi. O'rta davr lug'at tarkibining o'ziga xos xususiyatlari. Ijtimoiy tuzilishning o'zgarishi, humarnamachilik, savdo-sotiq va qishloq xo'jaligi taraqqiyoti munosabati bilan lug'at tarkibining boyib borish yo'llari. Eski so'zlarning yangi ma'noda ishlatilishi, affiksalar yordamida yangi so'zlarning ishlatilishi. Ikki tili: ya'ni skandinav va fransuz tillari hisobiga nemis va ingliz tili lug'ati tarkibining boyib borishi.

2. Nemis tili nazariy fonetikasi;

1-bo'lim. Kirish

O'rganilayotgan tilda segment fonemalar.Segment fonemalarning artikulyatsion tomoni: tovushlar hosilbo'lishining to'rt mexanizmi (kuch, tebranish, rezonatorlik va to'siqni yengish), ularga aloqador bo'lgan nutq organlari. Nutq organlarining tuzilishi, faoliyati va vazifalari. Unli tovushlarni tasnif qilishda o'zbek, rus, Yevropa va Amerika olimlarining fikrlari. Unlilarning talaffuz turg'unligiga ko'ra (monofong, diftong, diftongoid), tilning gorizontal va vertikal harakatiga ko'ra, lablarning holatiga ko'ra, tarixiycho'z qilishga ko'ra, nutq organlarining taranglashuviga ko'ra tasnifi. O'rganilayotgan tili unlilarni rus va o'zbek tili unlilari bilan qiyoslash.

2- bo'lim. Fonema nazariyasi

Fonemaning uch xususiyati yaxlitligidan iboratligi: uning material (talaffuz) tomoni, abstraktligi, umumiyliigi, funksional, ya'ni ma'no farqlay olish xususiyati. Fonema va uning variantlari. Segment fonemalarning konstitutiv va distinktiv vazifalari. Urg'usiz unlilar va ularning tasnifi. Transkriptsiya va uning turlari. Nutq tovushlarining o'zgarishi va ularning turlari. Bu haqda Moskva va Sankt Peterburg olimlarining qarashlari. Assimilyatsiya, akkomodatsiya va eliziyakabi tovush o'zgarishi xususiyatlar

3-bo'lim. Tillarda bo'g'in qurilishi

Bo'g'in fonetikaning talaffuz birligi sifatida. Bo'g'inning nutqdagi vazifalari. Bo'g'in hosil qiluvchi tovushlar. Bo'g'inning tarkibiy qismlari va turlari. Bo'g'in boshida va oxirida unli va undoshlarning birika olishi. O'rganilayotgan xorijiy tilda bo'g'in ajratish qoidalari. Bo'g'in haqida mavjud nazariyalar. Bo'g'inning vazifalari.

4-bo'lim. So'z urg'usi

So'z urg'usi tushunchasi, ularning turlari (dinamik, musiqiy, sifat va miqdor urg'ulart). So'z urg'usining xususiyatlari. Urg'uning o'rta va darajasi. Urg'u o'rta belgilovchi omillar (retsessiv, ritmik, grammatik va semantik), ularning o'zaro munosabati. So'z urg'usining vazifalari.

5-bo'lim. Intonatsiya

Intonatsiya ta'rifi. Tor va keng ta'rifi. Intonatsiyaning tashkiliy qismlari va ularning vazifalari. Intonatsiya va prosodiya. Intonatsiyaning melodik komponenti, uning ta'rifi va vazifalari. Tekst hosil qilishda melodik komponentning roli. Melodik komponentning turlari. Intonatsiyaning gap urg'usi komponenti, uning ta'rifi va vazifalari. Gapurg'usining turlari. Gap urg'usi va so'z urg'usi munosabati. Gap urg'usining matn tuzishda ritmik va intonatsion guruhlarni hosil qilishdagi roli. Gap urg'usining melodik komponent bilan o'zaro munosabati va gapning kommunikativ markazini hosil qilish qobiliyati. Gap urg'usining vazifalari.

6-bo'lim. Nutqning fonostilistik xususiyatlari. Fonostilistikning asosiy o'rganish ob'ektlari. Talaffuz normasi va uning stilistik farqlanishi masalasi. Fonetik uslublarni ifodalashda ekstralingvistik va paralingvistik vositalar. Tovush va intonatsiya stilistikasi. Intonatsion uslub turlari. Fonetik sinonimiya masalasi. Tovushlar simvolizmini tushunchasi.

3. Nemis tili leksikologiyasi va stilistikasi

1-mavzu. O'rganilayotgan tili stilistikasi fani, predmeti va vazifalari

O'rganilayotgan tili stilistikasi fani, predmeti va vazifalari. Nemis tili stilistikasi uning boshqa lingvistik fanlar orasida turgan o'rni. Fanning fonetika, grammatika, til tarixi bilan aloqalari. Tarixiy (diakron) va tasviriy (sinxron) leksikologiya va ularning o'zaro munosabatlari. Ekspressiv fonetika, ekspressiv grammatika, ekspressiv semantika, ekspressiv tipologiya va kabilar to'g'risida ma'lumotlar.

2-mavzu. Metodologiya.

Morfologik tizimning stilistik differentsiyasi. Hozirgi zamon nemis tilida otlarning sondagi stilistik tavsifi. Artiklning stilistik funksiyasi. Olmoshning stilistik ma'nolari. Sifat pozitsiyasi stilistik hodisa sifatida. Nemis tilida sifat darajalarining stilistik jihatdan qo'llanilishi. Sifatlarining o'tashuvi. Fe'llarning zamon va modal shakllari, yasovchi vositalarning stilistik qo'llanilishi: baholash suffiksining kuchaytirish va inkor ma'no'i old qo'shimchalari

3-mavzu. Funktsional uslub tushunchasi

Funktsional uslub va uning turlari. Badiiy uslub xususiyatlari: she'riy, drama va nasr uslublarining asosiy til xususiyatlari. Ilmiy uslub xususiyatlari va vazifalari. Publisistik uslub xususiyatlari va vazifalari. Axborot vositalari uslub xususiyatlari va vazifalari. Axborot vositalari matnida janr turlari va xususiyatlari. Rasmiy uslub vazifalari, rasmiy uslub turlari va ularning ilsoniy xususiyatlari.

4-mavzu. Leksik stilistik vositalar.

Ifoda va stilistik vosita tushunchasi. Stilistik vazifa tushunchasi va turlari. Leksik ma'no turlari. Stilistik vositalarning til sahlari aro turlanishi: metafora, metonimiya, ironiya, epitet, mubolag'a, oksimoron, antonomasiya, zevgma, so'z o'yini tushunchasi, ilsoniy ahamiyati va vazifalari.

5-mavzu. Leksik vositalar og'zaki nutqda va fonetik mashqlar.

O'xshatish, perifraza, liota, gradatsiya, antiteza, allyuziya, o'zlashima gap tushunchalari, ularning ilsoniy ahamiyati va vazifalari.

6-mavzu. Sintaktik stilistik vositalar.

Sintaktik stilistik vositalarning ilsoniy ahamiyati va vazifalari. Gap qurilishidagi o'zgarishlarga asoslangan stilistik vositalar: bir bosh bo'lakli gap, inversiya, parallel konstruktiviy, xiazm, takror, sanash, polisindeton, asindeton va ritorik so'roq gap. Og'zaki nutqda gap tarkibi o'zgarishlarga asoslangan stilistik vositalar: ellipsis, tugallanmagan gap, ajratilgan konstruktiviy.

7-mavzu. Ekspressiv fonetika

Ifodaning akustik nuqta nazardan aks ettirilishi: alliteratsiya, assonans. Intonatsiya tushunchasi, intonatsiya tarkibi: urg'u (accent rythmique, logique, emphatique); tovushlarning sifat belgilari. Talaffuz uslublari. Alliteratsiya. Assonans. Kakafoniya. Nemis tilida she'riyatning tizim va shakllari. Rifma. Ritm.

4. Qiyosiy tipologiya

1. O'quv fani o'qitilishi bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar

6

Qiyosiy tipologiya fanidan dastur O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Ta'lim to'g'risidagi Qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi hamda Respublikada chiqarilgan qaror va farmonlarga hamda chet tillarni o'zlashtirish Ummuqiroq darajalar tizimiga asoslanib tuzildi.

Ushbu dastur nemis va ona tili qiyosiy tipologiyasining muhim muammolari, jumladan, turli tizimga oid tillarni o'zaro qiyoslash tamoyillarining nazariy va amaliy jihatlarini qamrab oladi.

I-bo'lim (bob). Kirish.

Qiyosiy tipologiyaning maqsadi, vazifalari va o'rganish metodi, nazariy va amaliy ahamiyati. Tipologik tadqiqotlarning turlari. Tilda tip tushunchasi. Metatil va til universalialari. Tipologik tadqiqotlarning tarixi. Tipologik tadqiqotlarning hozirgi yo'nalishlari va tamoyillari. Tipologik tadqiqotlar o'lkazish metodikasi. Qiyosiy tipologik tadqiqotlar tahlili. J.Buranov va boshqa tilshunos olimlarning tipologik tasniflari.

II-bo'lim (bob) Fonetika.

Qiyoslanayotgan tillarning fonetik va fonologik tizimlari tipologiyasi. Fonetik va fonologik tipologiyaning nazariy asoslari. Fonetika va fonologiya o'rtasidagi farqlar. Uchl va undosh tovushlarni qiyoslash. Urg'u. Intonatsiya. Assimiliatsiya. Dissimiliatsiya. Reduksiya. Akcent. Ritm. Pauza.

III-bo'lim (bob). Morfologiya

Chet tili va ona tili morfologik tipologiyasi. Morfologik tipologiyaning ob'ekti. Qiyosiy tipologiyaning boshqa bo'limlar bilan korrelyatsiyasi. Morfema va allomorfi. Analitik va sintetik tillar tushunchasi. Tillarning tipologik tasnifi. Chet tili va ona tili so'z turkumlari tasnifi. So'z turkumlarini tasniflash. So'z turkumlarining grammatik tipologiyasi.

IV-bo'lim (bob). Sintaksis.

Chet tili va ona tili sintaktik darajalari tipologiyasi. Sintaksis haqida ma'lumot. Sintaktik darajalarni tasniflash. Qiyoslanayotgan tillarning sintaktik darajalari tipologiyasi. Qiyoslanayotgan tillarning sintaktik darajalari tipologiyasi. Qiyoslanayotgan tillarda so'z birikmasi (iboralar) tipologiyasi. Qiyoslanayotgan tillarda so'z birikmasini tasniflash va ularning tuzilishi. So'z birikmasini tasniflash va ularning tuzilishi. So'z birikmalari komponentlarining o'zaro munosabati. Qiyoslanayotgan tillarda gap tipologiyasi. Gap va uning mazmun va tuzilishiga ko'ra turlari. Gapni turlarga ajratish mezonlari. Gaplarni tasniflash. Qiyoslanayotgan tillarda gap turlari.

V-bo'lim (bob). Tipologik stilistika va frazeologiya

Qiyosiy stilistika va frazeologik muammolari. Lingvistikaning yangi yo'nalishlarida qiyosiy tipologiyaning o'rni.

7

Nemis va o'zbek tillarining sistemalarining frazeologik va stilistik jihatlari va til o'qitish hamda tajima jarayonlaridagi muammolar.

5. Tillar o'qitish metodikasi va ta'lim texnologiyalari

1. – **Mavzu: Grundlagen der Fremdsprachendidaktik im integrierten Bildungssystem (allgemeinbildende Schulen, Gymnasien und Berufsschulen)**
Chet tili didaktikasi xorijiy tillarni o'qitish va o'rganish jarayonini o'rganadi. Integratsiyalashgan ta'lim tizimida har bir ta'lim muassasasining maqsadi hisobga olinadi. Umumiy ta'lim maktablari kommunikativ ko'nikmalar muhim hisoblanadi. Kasb-hunar maktablari esa kasbiy til ko'nikmalariga ham e'tibor beriladi.
2. – **Mavzu: Kurze Geschichte der Fremdsprachenunterrichtsmethodik und ihre Entwicklungstrends**
Chet tilini o'qitish metodikasi tarix davomida rivojlanib kelgan. Dastlab grammatika va tajima usuli keng qo'llangan. Keyinchalik kommunikativ va interfaol metodlar paydo bo'lgan. Hozirgi davrda raqamli texnologiyalar muhim o'rin tutadi.
3. – **Mavzu: Was ist DLL?**
DLL "Deutsch Lehren Lernen" degan ma'noni anglatadi. Bu nemis tili o'qituvchilari uchun malaka oshirish dasturidir. Dastur nazariya va amaliyotni birlashtiradi. Uning asosiy maqsadi dars sifatini oshirishdir.
4. – **Mavzu: Grundfragen und Zielsetzung von DLL-5**
DLL-5 o'quv materiallari va mediadan foydalanishni o'rganadi. Unda darsliklar va texnologiyalarni samarali qo'llash masalalari ko'rib chiqiladi. Analog va raqamli vositalarning afzalliklari tahlil qilinadi. Maqsad zamonaviy va samarali dars tashkil qilishdir.
5. – **Mavzu: Lernmaterialien und Medien im DaF-Unterricht**
O'quv materiallari nemis tilini o'rganishda muhim yordam beradi. Bularga darsliklar, audio, video va onlayn platformalar kiradi. Media vositalari o'quvchilarning qiziqishini oshiradi. Shuningdek, ular til ko'nikmalarini rivojlantiradi.
6. – **Mavzu: Medien im Fremdsprachenunterricht**
Media vositalari chet tili darslarining ajralmas qismidir. Ular haqiqiy tili muhitini yaratishga yordam beradi. Audio va videolar tinglab tushunish qobiliyatini rivojlantiradi. Media darsni yanada qiziqarli qiladi.
7. – **Mavzu: Analoge und digitale Medien**
Analog mediaga kitoblar, rasmlar va kartalar kiradi. Raqamli mediega kompyuter, planshet va mobil ilovalar kiradi. Har ikkala turdagi media o'z afzalliklariga ega. Ularni birgalikda qo'llash samarali natija beradi.

8. – **Mavzu: Lehrwerke. Was ist ein Lehrwerk?**

Lehrwerk — bu chet tili darsida ishlatiladigan asosiy o'quv vositasidir. Unda matnlar, mashqlar va grammatik qoidalar mavjud bo'ladi. Darslik ma'lum til darajasiga moslashtiriladi. U darsni tizimli tashkil qilishga yordam beradi.

9. – **Mavzu: Bestandteile von Lehrbüchern und ihre Funktionen**

Darslik bir nechta qismlardan tashkil topadi. Bularga matnlar, mashqlar, lug'atlar va grammatika bo'limlari kiradi. Har bir qismining o'z vazifasi mavjud. Ular til ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

10. – **Mavzu: Innere Struktur des Lehrbuchs**

Darslikning ichki tuzilishi tartibli va mantiqiy bo'ladi. Har bir bo'lim ma'lum mavzuga bag'ishlanadi. Yangi grammatika va lug'at bosqichma-bosqich beriladi. Bu o'quvchilarga materialni oson tushunishga yordam beradi.

11. – **Mavzu: Sprachniveau des Lehrbuchs**

Darsliklar turli til darajalari uchun yaratiladi. Ular Yevropa til mezonlariga asoslanadi. Boshlovchilar uchun A1 va A2 darajalari mo'ljallangan. Yuqori bosqichlarda esa B va C darajadagi materiallar ishlatiladi.

12. – **Mavzu: Zielgruppen der Lehrbücher**

Darsliklar turli yosh va guruhlar uchun yoziladi. Bolalar, o'smirlar va kattalar uchun alohida materiallar mavjud. Ba'zi darsliklar talabalar yoki mutaxassislar uchun mo'ljallangan. Mazmun o'quvchilarning ehtiyojiga moslashtiriladi.

13. – **Mavzu: Zusatzmaterialien. Was sind die Funktionen der Zusatzmaterialien?**

Qo'shimcha materiallar darslikni boyitishga xizmat qiladi. Bularga ish varaqalari, video va testlar kiradi. Ular mustaqil o'rganishni rivojlantiradi. Bundan tashqari, o'quvchilarning qiziqishini oshiradi.

14. – **Mavzu: Zusätzliche grammatische Materialien**

Qo'shimcha grammatik materiallar qoidalarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Ularda qo'shimcha mashq va izohlar mavjud bo'ladi. O'quvchilar ular orqali mustaqil ishlashi mumkin. Natijada grammatik bilim mustakamlanadi.

15. – **Mavzu: Zusätzliche Materialien zur Aussprache**

Talaffuz materiallari to'g'ri talaffuzni shakllantirishga yordam beradi. Audio yozuvlar va fonetik mashqlar keng qo'llanadi. O'quvchilar tovush va urg'ularni mashq qiladilar. Bu esa mulqotni yaxshilaydi.

16. – **Mavzu: Anpassung von Lernmaterialien**

O'qituvchi materiallarni o'quvchilarning ehtiyojiga moslashtiradi. Bunda yosh, qiziqish va bilim darajasi hisobga olinadi. Ba'zi topsiqlar soddashtiriladi yoki kengaytiriladi. Shu orqali dars samaradorligi oshadi.

17. – **Mavzu: Vorstellungen über verschiedene Textarten**

Chet tili darsida turli matn turlari ishlatiladi. Bularga dialog, maqola, xat va hikoyalar kiradi. Har bir matnning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. O'quvchilar bu farqlarni tushunishni o'rganadilar.

18. — **Mavzu: Texte zum Thema Landeskunde und ihre didaktischen Aspekte**
Mamlakatshunoslik matnlari xalqning madaniyati va hayoti haqida ma'lumot beradi. Ular o'quvchilarning madaniy bilimni oshiradi. O'quvchi matnlarni ehtiyoqorlik bilan tanlashi kerak. Matnlar qiziqarli va tushunarli bo'lishi muhimdir.

19. — **Mavzu: Konzepte der Landeskunde**
Landeskunde mamlakatning tarixi, madaniyati va jamiyatini o'rganadi. Bu yo'nalishda turli konsepsiyalar mavjud. Zamonaviy yondashuvlar madaniyatlarni kompetensiyani rivojlantiradi. O'quvchilar o'z madaniyatini boshqa madaniyat bilan solishtiradilar.

20. — **Mavzu: Landeskundliche Materialien für das Auffüllen von Lehtbüchern**

Qo'shimcha mamlakatshunoslik materiallari darslik mazmunini boyitadi. Bular video, surat va autentik matnlardan iborat bo'lishi mumkin. Ular darsni yanada jonli qiladi. Shu orqali o'quvchilar ko'proq madaniy ma'lumot oladilar.

21. — **Mavzu: Didaktische Aspekte authentischer Texte zur Landeskunde**
Autentik matnlar real hayotdan olingan materiallardir. Ular haqiqiy til qo'llanishini ko'rsatadi. Bunday matnlar madaniyatni tushunishga yordam beradi. Lekin ularning murakkabligi hisobga olinishi kerak.

22. — **Mavzu: Textanalyse**
Matn tahlili matnning mazmuni va tuzilishini o'rganadi. O'quvchilar til birliklarini tahlil qiladilar. Bu usul matnni chuqurroq tushunishga yordam beradi. Natijada til ko'nikmalari rivojlanadi.

23. — **Mavzu: Themabezogene praktische Aufgaben**
Mavzuga oid amaliy topshiriqlar faol o'rganishni rivojlantiradi. O'quvchilar guruhlarda yoki jiftlikda ishlaydilar. Bunday topshiriqlar mulqotni kuchaytiradi. Shuningdek, mustaqil fikrlashni rivojlantiradi.

24. — **Mavzu: Informationsbeschaffung während des Lesens**
O'qish jarayonida o'quvchilar kerakli ma'lumotni izlaydilar. Buning uchun turli o'qish strategiyalari qo'llanadi. Muhim ma'lumotlarni ajratib olish muhim hisoblanadi. Bu matnni tushunishni osonlashtiradi.

25. — **Mavzu: Fremdsprachenkompetenz im DaF-Unterricht**
Chet til kompetensiyasi tinglash, o'qish, yozish va gapirishni o'z ichiga oladi. DaF darslarida barcha ko'nikmalar rivojlantiriladi. Asosiy maqsad erkin mulqot qilishdir. Madaniyatlarni kompetensiya ham muhim hisoblanadi.

26. — **Mavzu: Leseverstehen und Sehstrategien**
O'qib va ko'rib tushunish strategiyalari matnni yaxshiroq anglashga yordam beradi. O'quvchilar asosiy va ikkinchi darajali ma'lumotlarni ajratadilar. Oldingi bilimlardan foydalanish ham muhimdir. Strategiyalar o'rganishni yengillashtiradi.

27. — **Mavzu: Hörverstehen und Strategien**
Tinglab tushunish chet tilidagi asosiy ko'nikmalardan biridir. O'quvchilar suhbat

va audio materiallarni tinglaydilar. Maxsus strategiyalar asosiy ma'lumotni tushunishga yordam beradi. Doimiy mashq tinglash qobiliyatini rivojlantiradi.

28. — **Mavzu: Übungen und Aufgaben zum Leseverstehen**
O'qib tushunish mashqlari matnni anglashni rivojlantiradi. Savollar va moslashtirish topshiriqlari keng qo'llanadi. O'quvchilar turli strategiyalarni mashq qiladilar. Bu lug'at boyligini ham oshiradi.

29. — **Mavzu: Übungen und Aufgaben zur Grammatik**
Grammatik mashqlar til qoidalarini mustahkamlashga yordam beradi. Mashqlar yozma va og'zaki shaklda bo'lishi mumkin. Takrorlash muhim rol o'ynaydi. Yaxshi grammatika mulqotni osonlashtiradi.

30. — **Mavzu: Übungen und Aufgaben zum Wortschatz**
Lug'at mashqlari yangi so'zlarni o'rganishga xizmat qiladi. O'quvchilar sinonim va antonimlar bilan ishlaydilar. O'yin va interfaol topshiriqlar darsni qiziqarli qiladi. Boy lug'at til kompetensiyasini oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
20 — yil 9-avgustdagi 19-2018-son buyrug'iga asosan
2-8. Talabalar bilimni baholash mezonlari

15. Talabalarning bilimni quyidagi mezonlar asosida:
talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 5 (a'lo) baho;
talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 3 (qoniqarli) baho;
talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda — 2 (qoniqarsiz) baho bilan baholalanadi.

Yakuniy Davlat attestatsiya sinovida bitiruvchi talabalar uchun xar bir mutaxassislik fanidan 1 donadan jami 4 ta savoldan iborat bilet taqdim etilib:
1-savolga bitiruvchi mezon asosida to'la javob yozganda, maksimal-25 ball;
2-savolga bitiruvchi mezon asosida to'la javob yozganda, maksimal-25 ball;
3-savolga bitiruvchi mezon asosida to'la javob yozganda, maksimal-25 ball;
4-savolga bitiruvchi mezon asosida to'la javob yozganda, maksimal-25 ball;

Jami: 100 ballikda
bilimi aniqlanib, Nizomning I-jadvaliga muvofiq bitiruvchining baxosi
qo'yiladi.
Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi
to'g'risidagi Nizomga

ПЛОVA
I-jadval
Baholashni 5 baholik shkaladan 100 ballik shkalaga o'tkazish
JADVALI

5 baholik shkala	100 ballik shkala	5 baholik shkala	100 ballik shkala	5 baholik shkala	100 ballik shkala
5,00—4,96	100	4,30—4,26	86	3,60—3,56	72
4,95—4,91	99	4,25—4,21	85	3,55—3,51	71
4,90—4,86	98	4,20—4,16	84	3,50—3,46	70
4,85—4,81	97	4,15—4,11	83	3,45—3,41	69
4,80—4,76	96	4,10—4,06	82	3,40—3,36	68
4,75—4,71	95	4,05—4,01	81	3,35—3,31	67
4,70—4,66	94	4,00—3,96	80	3,30—3,26	66
4,65—4,61	93	3,95—3,91	79	3,25—3,21	65
4,60—4,56	92	3,90—3,86	78	3,20—3,16	64
4,55—4,51	91	3,85—3,81	77	3,15—3,11	63
4,50—4,46	90	3,80—3,76	76	3,10—3,06	62
4,45—4,41	89	3,75—3,71	75	3,05—3,01	61
4,40—4,36	88	3,70—3,66	74	3,00	60
4,35—4,31	87	3,65—3,61	73	3,0 dan kam	60 dan kam

Asosiy o'quv adabiyotlar va axborot manbalari.
Asosiy adabiyotlar

1. E. Dragan Grammaire théorique de la langue française. Cours théorique. Universitatea de Stat « A. Russo » din Bălți. Căfēdra de filologie franceză. Bălți, 2012.
2. Гак В. Г. Теоретическая грамматика французского языка. – М.:

- Доброев, 2000. – 832 с. ISBN 5-7913-0035-2
3. Nathalie Hirschprung, Tony Tricot. Cosmopolite B1. Hachette Livre 2018
4. Clémence Fafa, Florence Gajdosova. Edito A2. France 2022.
5. Bertocchi P., Costanzo E., Manuel de formation pratique pour le professeur de FLE, Paris, CLE International, 2008.
6. Lucile Charliac, Jean Thierry Le Bouneq, Bernard Loreil «Phonétique progressive du Français ». Paris, 2003.

7. Lucile Charliac, Annie-Claude Motron «Phonétique progressive du Français » (Niveau avancé). Paris, 2006.
8. F. Windmüller Apprendre une langue (FLE). Paris, 2015
9. Мамагов А.Э., Рахимов Х.Р. Введение в романо-германскую филологию. Чимкент. 2007
10. Chigarevska N. Traité de phonétique française. Cours théorique. M., 1982
11. Ilyna Vozhko. STYLISTIQUE FRANÇAISE. Суми 2020.
12. О.В. Станислав, Stylistique française. Cours théorique et pratique. Луцк – 2010.
13. Макарова Л. Stylistique française. Cours théorique et pratique. Луцк – 2010.
14. А.Мамадалев. La stylistique française. Andijon 2025
15. Абдушкурова Л.А. Stylistique du français moderne. Ташкент, 2004.
16. В. И. Томашпольский. Сравнительная типология французского и русского языков. Екатеринбург, издательство Уральского университета 2010
17. Анарбеува I.O. La typologie comparée. Andijon 2024.
18. Елена Драган. Грамматика théorique de la langue française. Cours théorique. Universitatea de Stat « A. Russo » din Bălți. Căfēdra de filologie franceză. Bălți, 2012
19. Sylvie Poisson-Quinton. Compréhension écrite, Niveau 3; Expression écrite Niveau 4. Paris, 2006.
20. Буранов Ж. Сравнительная типология английского и торкских языков. М., Высшая школа 1983.
21. Jean-Pierre Cuiq, Isabelle Grusa Cours de didactique du français langue étrangère et seconde. Nouvelle édition, Paris, 2017
22. F.Desmons, F.Ferchaud, D.Godin, C.Guettien Enseigner le FLE (français langue étrangère). Pratique de classe. Paris, 2005.
23. Florence Windmüller «Apprendre une langue, c'est apprendre une culture.» Leure ou réalité ? Giessener Elektronische Bibliothek 2015
24. Ж.Жаголов. Чет тили ўқитиш методикаси. – Т. -2012.
25. Fransuz tili o'qitish metodikasi, A.K.Kuchiboyev.Samarqand 2005

Internet saytlari

1. <http://www.academia.edu>
2. <https://biblio-online.ru/>
3. www.lewebpedagogique.com
4. www.clemi.org/fr

5. <http://www.infrance.ru/français/theorie/theorie.html>
6. www.granddictionnaire.com
7. <https://www.twinkl.com/>
8. <https://ibratfarzandlar1.uz/>
9. www.ziyouz.com
10. Website dedicated to linguistics: www.linguist.org
11. Русский филологический портал: www.philology.ru
12. www.latlb.uz
13. www.dissertat.ru
14. www.наука.ru
15. www.dissorg.com
16. www.uzscience.uz
17. www.gov.uz - Ўзбекистон Республикаси ҳукумат портали
18. www.ziyouz.net.uz
19. <http://iteslj.org/>
20. <http://www.tv5.org/>
21. <http://www.rfl.fr/>
22. <http://elfidubilingue.org/>
23. <http://www.safereadologie.net>
24. vocabularyprofile.com